

DOI: 10.36719/AEM/2007-2020/57/73-75

**Latifa Avazovna Xudayqulova**

O'zbekiston Fanlar Akademiyasi O'zbek tili  
Adabiyoti va Folklori Instituti

## MAROSIM FOLKLORIDA URF-ODAT VA AN'ANALAR

### Annotatsiya

Maqolada bola tug'ilishi va beshik to'yi marosimi folklorining janrlar tarkibi, marosimga aloqador udumlar, an'analar va unda ijro etiladigan qo'shiqlarning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

**Tayanch so'zlar:** *marosim folklori, etnofolkloristika, to'y marosim qo'shiqlari, an'anaviy qo'shiq, janr, urfodat, milliy an'analar*

### Folklore ceremony of cradle

#### Summary

The genre composition of wedding ceremony folklore, the traditions and customs associated with the birth of a child and the songs sung at these ceremonies and their specific features are analysed in this article.

**Key words:** *ceremony folklore, ethnofolkloristics, wedding songs, traditional songs, genre, habits and traditions, national traditions*

Ma'lumki, o'zbek xalqi jahondagi eng qadimiy madaniy an'analarga ega xalqlardan biri bo'lib, uning moddiy va ma'naviy madaniyati tarixi ilk tosh asriga borib taqaladi. Har bir davrda yashagan ajdodlarimiz o'z ota-bobolari tomonidan yaratilgan folklor an'alarini yanada rivojlantirganligi uchun ham o'zbek xalqining milliy an'alari avloddan avlodga o'tib, takomillashib kelgan. Ajdodlarimiz tomonidan amal qilinib kelingan bola tug'ilishi va uning chilla davri bilan bog'liq urf-odatlar ham O'rta Osiyo xalqlari oilaviy-maishiy marosimlari folklorining qadimiy qatlamini tashkil etadi. Chunki bola tug'ilishi bilan aloqador marosimlar tarkibida qadimgi mifologik tasavvurlar, magik inonchlar, animistik va totemistik qarashlar bilan bir qatorda ajdodlar homiylikiga ishonish an'anasining izlari ham saqlanib qolgan. Xalqimiz tomonidan yaratilgan marosim folklori janrlari tizimida bola tug'ilishi va beshik to'yi bilan aloqador udumlar, irimsirimlar, rasm-rusumlar, aytimlar, qo'shiqlar, olqish va magik tasavvurlar muhim o'rin tutadi. Oilaviy-maishiy marosimlar folkloridagi bunday rasm-rusumlar, urfodatlar, xalqning qarashlari hamda e'tiqodiy inonchlar etnograf va folklorshunoslar tomonidan ma'lum darajada o'rganilgan [1]. Asosiy qism. Hozirgi kunda bu mavzuda olib borilgan tadqiqotlarda Xorazm, Toshkent, Buxoro, Samarqand, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlarida istiqomat qiluvchi aholi orasidan to'plangan materiallar faktik asos vazifasini o'tab kelmoqda. Jumladan, Surxon vohasida O'rta Osiyoning boshqa hududlarida mavjud bo'lgan urf-odat va marosimlardan farqlanadigan o'ziga xos etnofolkloristik materiallar mavjud. Bu amallarning aksariyati animistik qarashlar va magik tasavvurlar bilan bog'liq bo'lib, kayvoni ayol, qushnoch yoki doya momolar tomonidan bajariladi. Umum o'zbek marosim folklorida bo'lgani singari, Surxon vohasida ham chaqaloq besh kunlik bo'lganda uni ziyon-zahmatdan saqlash maqsadida alohida marosim o'tkazilgan. O.Safarovning yozishicha, «o'tmishda bolasi turmaydigan onalar chaqaloq'i dastlabki besh kunlikdan o'tsa, uni chol yashaydigan eski chordevordan olib o'tish rasm bo'lgan. Bunda chaqaloqning o'sha chol va chordevorday uzoq umr ko'rish istagi ko'zda tutilgan» [2]. Bizning nazaramizda esa, chaqaloq besh kunlik bo'lganida aytiladigan quyidagi ritual qo'shiq aslida bolani keksa chol istiqomat qiladigan hovlining devoridagi teshikdan o'tkazish paytida ijro etilgan: Beshdan o'tdi, toshdan o'tdi, Chordevor hovlidan o'tdi, Choli bor hovlidan o'tdi, Otasining qo'shpichog'i, Onasining oshpichog'i, Opasining ovunchog'i [3]. Zero, Jarqo'rg'on tumanida ilgari chaqaloq tug'ilsa-da, bolasi turmaydigan oilalarda farzand dunyoga kelganda quyidagi magik amallarni ham bajarishgan: birorta yoshi ulug' chol yashaydigan hovlining eski devorini teshib, chaqaloqni ana shu teshikdan uch marta u yoqdan-bu yoqqa o'tkazib olishgan va har gal «echil-echil!» degan aytimni takrorlab turganlar. Ayrim qishloqlarda esa yoyilgan supraning ustiga qora qozonni to'ntarib qo'yib, yangi tug'ilgan chaqaloqni uning tagidan uch marta o'tkazishgan. Bunda ham yuqoridagi kabi, momolar«echil-echil!» aytimini ijro etib turishgan [4]. Bizningcha, chaqaloq boshini devor teshigidan o'tkazishdan iborat ramziy ritual chog'ida ijro etilgan bu magik aytim keyinchalik bola tug'ilgandan keyingi beshinchi kechani kuzatish marosimida aytiladigan an'anaviy qo'shiqqa aylangan. Har bandi uch misradan iborat bo'lgan yuqoridagi marosim aytimida xalq og'zaki ijodining o'ziga xos badiiylik mezonlari ko'zga tashlanadi. Jumladan, birinchi bandda «besh» – «tosh», «choli bor - chordevor» kabi so'zlar o'zaro qo'fiyalanib kelgan bo'lsa, keyingi bandda «otasi – onasi - opasi», «oshpichog'i – qo'shpichog'i –

ovunchog'i» so'zlari qo'sh qofiyani hosil qilgan. Surxon vohasida yangi tug'ilgan chaqaloqni turli xil kasalliklardan saqlash uchun barcha amallar bajarilishiga qaramay, ba'zi hollarda chaqaloq dardga duchor bo'lgan. Ayniqsa, yosh bolalar orasida «Ko'k yo'tal» kasalligi ko'proq uchragan. Ko'k yo'tal bo'lgan bolaga ko'k kaptarning pati ivitilgan suvni ichirayotib:

*Ko'k kaptar, ko'k kaptar,  
Dardiga davo ber, kaptar,  
SHifo bergan zahoting,  
Sen kabi uchsini, kaptar.*

– deb aytim aytilgan. Mazkur aytimda she'riy mahoratning yana bir shakli – epifora mavjud bo'lib, bu san'atning asosiy mohiyati she'riy asarning misralari oxirida tovush, so'z va iboralarning takrorlanib kelishi bilan xarakterlanadi. Bu erda «kaptar» so'zi misralar oxirida kelib, lirik qahramonning qalbidagi tug'yonlarini - iltijolarini, eng ezgu istaklarini ta'kidlab ko'rsatishga xizmat qilmoqda. Ayni paytda, bizning diqqatimizni aynan ko'k rangli kaptarga qaratib, ayni shu rangdagi jonivorlar ko'plab dardlarga davo bo'lishi haqidagi xalq qarashlariga ham ishora qilmoqda. O'rta Osiyo xalqlari orasida, jumladan, o'zbeklarda soch bilan bog'liq o'ziga xos mifologik tasavvurlar saqlanib qolgan [5]. SHuning uchun ham bolaning sochini birinchi marta olish, «haydar» – kokil qoldirish va «soch to'yi» marosimi an'anaviy tarzda o'tkazib kelingan [6]. CHilla davrida chaqaloqning sochini birinchi marta olish marosimi Surxon vohasida «chillasoch» deyilgan. CHaqaloqning sochini birinchi marta olishda ham magik xarakterdagi muayyan irim-sirim va odatlarga amal qilishgan. Bolaning «umr yo'li oq bo'lsin» degan niyatda chaqaloqning sochi olinadigan joyda yangi ohorli oq ro'mol to'shalgan. CHaqaloqning sochini olishdan avval «bolaning umri uzun bo'lsin» degan ma'noda serfarzand, o'zidan tinib-tinchigan biror kishi, ko'pincha go'dakning bobosi yoki momosi bolaning sochiga qaychi urib bergan. CHaqaloqning olingan «chillasochi»ni hovlidagi birorta mevali daraxt (ko'pincha tok)ning tagiga ko'mishgan. Uzoq yillar farzand ko'rmay yurgan yoki farzand ko'rsa-da, bolasi turmaydigan oilalarda tug'ilgan o'g'il bolaning sochi olinganda esa boshining o'ng tomonida, chaqaloq qiz bola bo'lsa, chap tomonida kokil qoldirilgan. Bu kokil xalq orasida chochniyoz («sochniyoz») deb yuritilgan. Bir yilga qadar chochni yoz olinmay, yuvib-tarab, parvarishlangan. CHochniyoz bola bir yoshga to'lganidan keyin birorta mozor (masalan, Qumqo'rg'on tumani aholisining udumiga ko'ra, bolaning chochni yozini oldirish uchun CHilla mozor degan muqaddas joyga boriladi)ga borib qo'y so'yilgan va kokili olingan. Vohaning ba'zi qishloqlarida esa bolaning sochini birinchi marta olayotganda boshining orqa tomonida bir tutamgina sochni ataylab qoldirishadi. Ana shu qoldirilgan soch tolalari ergash soch deyiladi. Bu odat zamirida oilaning yangi tug'ilgan chaqaloq'i ketidan keyingi farzandlar ergashib kelsin, ya'ni oila serfarzand bo'lsin degan ezgu niyat o'z aksini topgan. Bu irim odatda kam farzand ko'rgan yoki tug'ilgan chaqaloqlari yoshligida nobud bo'lib ketaveradigan oilalarda bajarilgan [7]. Surxon vohasida bola va ona bilan bog'liq barcha marosimlar bajarilgandan so'ng chilla davri tugaydi. CHaqaloq va onasi bu davrdan eson-omon o'tib olganlari munosabati bilan navbatdagi kichkina marosim, ya'nichilla qochdi, chilla quvdi o'tkazilgan. Surxon vohasi aholisining bola tug'ilishi bilan aloqador an'anaviy marosim folklori janrlari tizimida chaqaloqni beshikka ilk bor belash va beshik to'yi marosimi folklori muhim o'rin tutadi. Beshik to'yi nafaqat o'zbek, balki turkiy xalqlar marosim folklorining qadimiy uzvlaridan biri ekanligini Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» asaridagi beshikka aloqador leksemalar ham tasdiqlaydi [8]. O'zbek folkloreshunosligida beshik to'yi marosimining kelib chiqish tarixi, o'tkazilish tartibi va unda ijro etiladigan folklor asarlarining badiiy xususiyatlari haqida bir qator ilmiy asarlar yaratilgan. Xususan, professor O.Safarovning bola tarbiyasining beshik davri bilan aloqador qo'shiq, aytim va olqishlarni ilk bor ilmiy tavsiflashga doir ishlari [9], yosh tadqiqotchi N.Qurbonovanning beshik to'yining o'zbek bolalar marosim folklorida tutgan o'rniga doir nomzodlik dissertatsiyasida [10] bu masala bo'yicha qiziqarli ilmiy kuzatishlar bayon qilingan. Ammo o'zbek xalqining etnik tarkibi turli-tuman urug'lardan iboratligi hamda o'lkamizda kechgan murakkab etnogenetik jarayonlar natijasida marosim folklorining boshqa janrlarida bo'lgani singari, beshik to'yi bilan bog'liq udumlar va verbal komponentlarda ham ko'p qatlamlilik va hududiy o'ziga xosliklar yuzaga kelgan. SHuning uchun ham o'zbek xalq oilaviy-maishiy marosimlar folklori janrlarini ma'lum hududlar materiali asosida tadqiq etgan S.Davlatov (Qashqadaryo viloyati), N.Quronboeva (Xorazm viloyati) kabi folklorshunoslar o'z dissertatsiyalarida [11] beshik to'yi marosimining lokal xususiyatlarini yoritishga diqqatni qaratishgan. SHuningdek, Xorazm bolalar poetik folklorini maxsus o'rgangan H.Ro'zmetov ham bolalarni erkalovchi qo'shiqlarni ikki tipga, ya'ni «beshik qo'shiqlari: a) allalar; b) aytim-olqishlar; v) «bakbavaklar» hamda «suyish qo'shiqlari: a) erkalamalar; b) ovutmachochlar; v) qiziqmachochlarga bo'lib o'rgangan [12]. SHuningdek, o'zbek beshik to'yi marosimi folklori haqida G'. Jahongirov, M. YOqubbekova, G.Mardonova kabi olimlarning ishlarida muhim fikrlar aytilgan [13]. Xulosa. Bu tadqiqotlar O'zbekistonning har bir viloyatidagi beshik to'yi marosimi folklori materiallari folklorshunoslik nuqtai nazaridan jiddiy o'rganilishi lozimligini ko'rsatadi. SHu jihatdan qaraganda,

Surxondaryo viloyati o'zbek marosim folklorining janrlar tizimida alohida o'rin tutadigan beshik to'y marosimi folklori ham bir qator xususiyatlari bilan boshqa vohalardagi ayni marosimiy jarayondan jiddiy farqlanuvchi belgilarga ega. Surxon vohasi aholisi marosim folklorining janrlar tarkibi umumo'zbek folklori an'analari bilan mushtarak jihatlarga ega bo'lsa-da, ammo ana shu marosimlar ichidagi turli-tuman urf-odat, rasmrusum, irim-sirim, aytim va alomatlar talqinidagi o'ziga xosliklari bilan boshqa hududlardan jiddiy farqlanib turadi. Bunday o'zgachalik vohada qadimdan shakllangan o'ziga xos folklor an'analari, viloyat aholisining etnik tarkibi bilan bog'liq janriy rang-baranglik va hududda kechgan ko'p asrlilik madaniy jarayonlar natijasida yuzaga kelgan badiiy matnlarning boshqa joylarda uchramasligi yoki muayyan darajada farqlanib turishi bilan xarakterlanadi.

### Adabiyotlar

1. Qarang: Troitskaya A.L. Первые sorok dney rebenka (chillya) sredi osedlogo naseleniya Tashkentskogo i CHimkentskogo uezdov // V.V.Bartoldu – druzya, ucheniki i pochitateli. – T., 1927; YAna o'sha. Rojdenie i pervye gody jizni rebenka u tadjikov doliny Zerafshana //Sovetskaya etnografiya. – 1935. – № 6; YAna o'sha. Nekotorye starinnye obychai, obryady i poverya tadjikov doliny Verxnego Zerafshana //Trudy Instituta etnografii. T. XCVII. – M., 1971; Snesev G. P. Relikty domusulmanskix verovaniy i obryadov u uzbekov Xorezma. – M.: Nauka, 1969. – S.73-106; Firshteyn L.A. O nekotoryx obyчайax i poveryax, svyazannyx s rojdeniem i vospitaniem rebenka u uzbekov YUjnogo Xorezma //Semya i semeynye obryady u narodov Sredney Azii i Kazaxstana. – M.: Nauka, 1978. – S.189-208; Safarov O. Bolalarni erkalovchi o'zbek xalq qo'shiqlari. – Toshkent: Fan, 1983; Qurbonova N. O'zbek bolalar marosim folklori: Filol. fanlari nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 1994; Quronboeva N. Xorazm to'y marosim folklori: filol.fanlari nomz. diss. avtoref. – T., 1998; Hamroqulova B.Surxondaryo viloyatida bolalar bilan bog'liq urfodatlar: Tarix fanlari nomz. diss. – Toshkent, 2001.
2. Safarov O. O'zbek bolalar poetik folklori. – Toshkent: O'qituvchi, 1985. – B. 46.
3. Boychechak. Bolalar folklori. Mehnat qo'shiqlari. O'zbek xalq ijodi. – Toshkent: Adabiyot va san'at, 1984. – B. 52.
4. O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti. Folklor arxivi. Inv. - № 1833. – B. 2-3.
5. Musaqulov A. O'zbek xalq lirikasi. – Toshkent: Fan, 1995; Ro'zimboev S. Qo'shiqlarda soch magiyasi //Ro'zimboev S., Sobirova N. «Avesto» mifologiyasi va Xorazm folklori. – Urganch, 2001. – B.18-19.
6. Firshteyn L.A. O nekotoryx obyчайax i poveryax, svyazannyx s rojdeniem i vospitaniem rebenka u uzbekov Xorezma //Semya i semeynye obryady u narodov Sredney Azii i Kazaxstana. – M.: Nauka, 1978. – S.200-203; Jo'raev M. Soch magiyasi va u bilan bog'liq marosimlar //O'zbekiston etnologiyasi: yangicha qarashlar va yondashuvlar. – Toshkent, 2004. – B. 190-198.
7. O'zR FA Alisher Navoiy nomidagi Til va adabiyot instituti Folklor arxivi. Inv. - №1833. – B. 22.
8. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. T.1. – Toshkent: Fan, 1960. – B. 201-466.
9. Safarov A. Janrovyy sostav i poetika uzbekskogo detskogo poeticheskogo folklori: Avtoref. diss. ... d-ra filol. nauk. – Toshkent, 1985; YAna o'sha: Bolalarni erkalovchi o'zbek xalq qo'shiqlari. – Toshkent: Fan, 1983; YAna o'sha. O'zbek bolalar poetik folklori. – Toshkent: O'qituvchi, 1985; YAna o'sha. Alla-yo, alla. To'plab nashrga tayyorlovchi: O.Safarov. – T.: O'qituvchi, 1985; YAna o'sha. Allayo-alla. To'plab, nashrga tayyorlovchi: O.Safarov. – Toshkent: O'qituvchi, 1999.
10. Qurbonova N. O'zbek bolalar marosim folklori: Filol.fanlari nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 1994.
11. Davlatov S.X. Qashqadaryo vohasi o'zbek to'y marosimlari folklori: Filol. fanlari nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 1996; Quronboeva N. Xorazm to'y qo'shiqlari: Filol. fanlari nomz. diss. avtoref. – Toshkent: 1998.
12. Ro'zmetov H. Xorazm bolalar folklori (lokal xususiyatlari, tasnifi va badiiyati): Filol. fan.nomz. diss. avtoref. – Toshkent, 2005. – B. 9.
13. Jahongirov G'. O'zbek bolalar folklori. – Toshkent: O'qituvchi, 1975. – B. 64-88; YAkubbekova M. Janrovaya spetsifika i poeticheskie osobennosti uzbekskix narodnyx pesen «Alla»: Avtoref. diss. ... kand. filol. nauk. – Toshkent, 1990; YOqubbekova M. O'zbek xalq allalarida ruhiyat tasviri //O'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent, 1990. – 2-son. – B. 49-51; YAna o'sha. Beshiklar olib kelayin, alla. – Andijon, 1993; Alla, alla, oppog'im. To'plab, nashrga tayyorlovchi: M.YOqubbekova. – Toshkent: Respublika oila ilmiy markazi, 2002; Alla aytay, jonim bolam. To'plovchi va nashrga tayyorlovchi: Mardonova G. – T.:F